

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS
HSK IMTIHONLARIGA TAYYORLANISHDA INSHO YOZISHNING
AHAMIYATI.

Abduxamitova Laziza

*Xitoy tili filalogiyasi 2-bosqich talabasi
Samarqand davlat chet tillari instituti*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada HSK (Hanyu Shuiping Kaoshi) imtihonlariga tayyorlanish jarayonida insho yozish ko'nikmasining ahamiyati tahlil qilinadi. Insho yozishning til o'rganishdagi o'rni, lug'at boyligini oshirish, grammatik bilimlarni mustahkamlash, mantiqiy fikrlash va yozma nutqni rivojlantirishdagi roli to'liq yoritiladi. Shuningdek, HSK4, HSK5 va HSK6 darajalarida yozuv bo'limining o'ziga xos xususiyatlari ham ko'rib chiqiladi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется значение написания эссе при подготовке к экзаменам HSK (Hanyu Shuiping Kaoshi). Освещается роль письменной речи в изучении китайского языка, а также влияние написания эссе на развитие словарного запаса, закрепление грамматических знаний и формирование логического мышления. Рассматриваются требования письменной части экзаменов HSK4, HSK5 и HSK6.*

Abstract. *This article examines the importance of writing essay in preparation for the HSK (Hanyu Shuiping Kaoshi) examination. The role of written communication in learning Chinese, as well as the impact of essay writing on vocabulary development, grammar acquisition, and logical thinking skills are discussed. Moreover, the writing requirements of HSK4, HSK5, and HSK6 are also analyzed. The study concludes that regular essay-writing practice is one of the key factors in achieving high scores on HSK.*

Kalit so'zlar: *HSK, xitoy tili, yozma nutq, insho yozish, grammatika, lug'at boyligi, til o'rganish, yozish ko'nikmasi.*

Ключевые слова: *HSK, китайский язык, письменная речь, эссе, грамматика, словарный запас, изучение языка.*

Keywords: *HSK, Chinese language, essay writing, vocabulary, grammar, language learning, writing skills.*

Kirish

Bugungi kunda Xitoy dunyoning iqtisodiy va siyosiy muhim markazlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli xitoy tilini o'rganishga bo'lgan qiziquvchilarning soni butun dunyoda, shu jumladan O'zbekistonda ham tobora ortib bormoqda. Xitoy tilini bilish darajasini aniqlovchi eng nufuzli xalqaro imtihonlardan biri HSK hisoblanadi. HSK imtihoni tinglab tushunish, o'qish va yozish kabi asosiy til ko'nikmalarini baholaydi. Ayniqsa yuqori darajadagi imtihonlarda yozuv bo'limi muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabadan nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri yozishni, balki mustaqil va mantiqiy fikr yuritishni ham talab qiladi. Yozma nutqning eng samarali shakllaridan biri insho yozish hisoblanadi. Insho yozish orqali talaba o'zining til bilimlarini nafaqat amaliyotda

qo'laydi, balki yangi lug'at birliklarini yozuvda ishlatish orqali xotira uzoq vaqt eslab qoladi. Bundan tashqari, murakkab grammatik konstruktsiyalarni yana yaxshiroq tushunadi va mustahkamlaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi HSK imtihonlariga tayyorlanishda insho yozishning ahamiyatini o'rganishdan iborat. Tadqiqot quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. HSK darajalari bo'yicha yozuv talablarini tahlil qilish;
2. HSK imtihonining yozuv bo'limini tahlil qilish;
3. Insho yozishning til o'rganishdagi rolini aniqlash;
4. Lug'at boyligi va grammatika rivojlanishiga ta'sirini o'rganish;
5. Talabalar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil va kuzatish metodlaridan foydalanildi. HSK bo'yicha mavjud o'quv qo'llanmalar, metodik manbalar va ilmiy maqolalar o'rganildi. Shuningdek, xitoy tilini o'rganayotgan talabalarning yozma ishlari tahlil qilinib, yozish ko'nikmasini rivojlantirishda insho yozishning samaradorligi baholandi.

HSK imtihonining yozuv bo'limi

Yozuv qismi HSK darajasi oshib borgani sari oddiy gaplardan murakkab insho va ilmiy matnlar yozishgacha rivojlanadi. HSK imtihoni turli darajalardan iborat bo'lib, har bir bosqichda yozish ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar murakkablashib boradi. 2021-yildan boshlab Xitoy Ta'lim vazirligi huzuridagi Til va madaniyat hamkorligi markazi tomonidan HSKning yangi uch bosqichli va to'qqiz darajali tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim HSK 1 dan HSK 9 gacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi va har bir darajada yozuv ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar murakkablashib boradi.

HSK 1 darajasida o'quvchilar asosan iyerogliflarni tanish va yozishga o'rganadilar. Bu bosqichda yozuvning asosiy maqsadi xitoy tilining grafikasiga moslashish va eng sodda jummalarni tuza olishdir. Talabgorlar o'z ismini tanishtirish, salomlashish, oila a'zolari yoki kundalik hayotga oid oddiy gaplarni yozish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu bosqichda yozuvdan ko'ra iyerogliflarni to'g'ri shakllantirish va eslab qolish muhimroq hisoblanadi.

HSK 2 darajasiga o'tilganda talabgorlarning lug'at boyligi kengayadi va ular sodda gaplarni mustaqil ravishda tuza boshlaydilar. Bu bosqichda so'zlarni to'g'ri tartibda joylashtirish, qisqa dialoglar yozish hamda kundalik mavzularda fikr bildirish talab etiladi. O'quvchilar o'z qiziqishlari, maktab hayoti, do'stlari va oilasi haqida qisqa matnlar yozishni o'rganadilar.

HSK 3 darajasida yozuv yanada murakkablashadi. Endi o'quvchilar nafaqat alohida gaplar, balki kichik hajmdagi bog'langan matnlar yaratishlari kerak bo'ladi. Ushbu bosqichda sabab va natijani ifodalash, voqealarni ketma-ket bayon qilish hamda o'z fikrini sodda tarzda asoslash ko'nikmalari shakllanadi. Talabgorlar rasmlar asosida hikoya tuzish yoki ma'lum mavzu yuzasidan kichik paragraf yozishga qodir bo'ladilar.

HSK 4 darajasi o'rta bosqich hisoblanib, talabgorlardan murakkabroq grammatik konstruksiyalarni qo'llash talab qilinadi. Ushbu bosqich da yozuv qismi kichik hikoyalar, tavsifiy matnlar va qisqa insholarni o'z ichiga oladi. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va mantiqiy tarzda ifodalashni, bog'lovchi vositalardan foydalanishni hamda matnning yaxlitligini saqlashni o'rganadilar. Aynan shu bosqichda yozma nutqning shakllanishi sezilarli darajada rivojlanadi.

HSK 5 darajasida yozuv akademik xarakter kasb eta boshlaydi. Talabgorlardan berilgan matnni qayta hikoya qilish, ma'lum masala bo'yicha o'z nuqtai nazarini bildirish va dalillar keltirish talab qilinadi. Internetning ta'siri, ekologik muammolar, ta'lim tizimi yoki texnologik taraqqiyot kabi mavzularda insho yozish odatiy vazifalardan hisoblanadi. Bu bosqichda til birliklaridan boy va xilma-xil foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

HSK 6 darajasi esa yuqori bosqich bo'lib, unda talabgorlar murakkab mavzularda batafsil matnlar yozishlari kerak. O'quvchilar bir nechta manbalarni umumlashtirish, asosiy g'oyalarni ajratib ko'rsatish va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Yozilgan matnlar mazmunan boy, grammatik jihatdan to'g'ri va uslubiy jihatdan mukammal bo'lishi talab etiladi.

Insho yozishning lug'at boyligini rivojlantirishdagi o'rni

Til o'rganishda lug'at boyligi muhim ahamiyatga ega. Yetarli so'z boyligisiz o'z fikrini erkin ifodalash juda mushkul. Insho yozish o'quvchini faol fikrlashga undaydi. Oddiy suhbat davomida inson ko'pincha o'zi biladigan cheklangan miqdordagi so'zlardan foydalanadi. Biroq ma'lum bir mavzuda insho yozish jarayonida fikrni aniq, ravon va ta'sirchan ifodalash uchun turli sinonimlar, iboralar va yangi so'zlarni izlashga to'g'ri keladi. Bu esa lug'at boyligining ortishiga xizmat qiladi. Masalan, "yaxshi" so'zini takror-takror ishlatish o'rniga "ajoyib", "mukammal", "foydali", "samarali" kabi so'zlardan foydalanish yozuvning sifatini oshiradi va o'quvchining lug'at zaxirasini boyitadi. Insho yozishning yana bir muhim jihati shundaki, yangi o'rganilgan so'zlar amaliyotda tez-tez qo'llaniladi. Tilshunoslarning ta'kidlashicha, so'zni faqat yodlash uning uzoq muddatli xotirada saqlanishini kafolatlamaydi. So'z muntazam ravishda nutqda yoki yozuvda ishlatilgandagina faol lug'at tarkibiga kiradi. Insho yozish esa o'quvchiga yangi so'zlarni turli kontekstlarda qo'llash imkonini beradi. Natijada so'zlarning ma'nosi chuqurroq anglanadi va ularni eslab qolish osonlashadi. Masalan, xitoy tilini o'rganayotgan talabalar HSK imtihonlariga tayyorgarlik jarayonida muntazam insho yozish orqali yangi iyerogliflar va so'zlarni amaliy qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Har bir yozilgan insho o'quvchining yangi lug'at birliklarini o'zlashtirishiga va grammatik bilimlarini mustahkamlashiga yordam beradi. Ayniqsa HSK 4-6 darajalarida insho yozish lug'at boyligini sezilarli darajada oshiradigan samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kontekstda qo'llangan so'zlar oddiy yodlangan so'zlarga nisbatan uzoqroq esda qoladi. Masalan, talaba "Ta'limning ahamiyati" mavzusida insho yozar ekan, 学习, 教育, 知识, 学校, 老师 kabi so'zlardan foydalanadi. Ushbu birliklarning muntazam takrorlanishi ularning faol lug'at tarkibiga kirishiga yordam beradi.

Insho yozishning grammatik kompetensiyani rivojlantirishdagi roli

Insho yozish jarayonida o'quvchi o'z fikrlarini mantiqiy va izchil tarzda bayon etishga harakat qiladi. Buning uchun esa grammatik qoidalardan to'g'ri foydalanish zarur bo'ladi. Agar gaplar grammatik jihatdan noto'g'ri tuzilsa, matn mazmunini tushunish qiyinlashadi va kommunikativ maqsad to'liq amalga oshmaydi. Shu sababli insho yozish o'quvchini grammatik qoidalarni amalda qo'llashga undaydi. Xitoy tilida grammatik xatolar yozma nutq sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, so'z tartibi va grammatik ko'rsatkichlarning noto'g'ri qo'llanishi ma'noni buzib yuborishi mumkin. Insho yozish jarayonida talabalar: 的, 地, 得 yuklamalari; 把 va 被 konstruktsiyalari; murakkab qo'shma gaplar; sabab va natijani ifodalovchi bog'lovchilar kabi grammatik vositalarni amaliy qo'llaydilar. Natijada grammatik bilimlar mustahkamlanadi va yozuvdagi xatolar soni kamayadi.

Insho yozish va mantiqiy fikrlash

Insho yozish nafaqat til ko'nikmasi, balki fikrlash jarayonini ham rivojlantiradi. Talaba mavzuni tahlil qiladi, dalillar keltiradi va xulosalar chiqaradi. Insho yozishning mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi asosiy afzalliklaridan biri fikrlarni tizimli ravishda tashkil etishga o'rgatishidir. Har qanday insho kirish, asosiy qism va xulosa kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. O'quvchi mavzuni yoritish jarayonida avvalo asosiy g'oyani aniqlaydi, keyin uni dalillar bilan mustahkamlaydi va yakunda umumiy xulosaga keladi. Bu jarayon mantiqiy ketma-ketlikni shakllantiradi hamda fikrlarni izchil bayon qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Insho yozish davomida o'quvchi turli ma'lumotlarni tahlil qiladi va ular orasidagi bog'liqlikni aniqlaydi. Biror mavzu yuzasidan yozish uchun faktlar, misollar va dalillar to'planadi. Ushbu ma'lumotlarni saralash, eng muhimlarini tanlash va ulardan to'g'ri foydalanish mantiqiy fikrlashning muhim elementlaridan hisoblanadi. Natijada o'quvchi ma'lumotlarni shunchaki yodlab qolmaydi, balki ularni tushunadi va tahlil qiladi. Mantiqiy fikrlash ayniqsa HSK5 va HSK6 darajalarida muhim hisoblanadi. Chunki bu bosqichlarda talabadan murakkab fikrlarni izchil va tushunarli shaklda ifodalash talab etiladi. Bundan tashqari, O'zbekistonlik talabalar orasida quyidagi muammolar keng tarqalgan: hanzi yozishda xatolar, lug'at boyligining yetarli emasligi, gaplarni noto'g'ri tuzish, mantiqiy bog'liqlikning sustligi, yozuv amaliyotining kamligi va boshqalar. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun muntazam ravishda insho yozish tavsiya etiladi.

Insho yozish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar

Insho yozish ko'nikmasini rivojlantirish uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda muntazam amaliy mashg'ulotlar ham muhim ahamiyatga ega. Quyidagi tavsiyalar o'quvchilarning yozma nutqi, lug'at boyligi, grammatik kompetensiyasi va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

1. Har kuni qisqa matn yozish odatini shakllantirish: Yozish ko'nikmasi muntazam mashq orqali rivojlanadi. Har kuni 100–150 so'zdan iborat kichik matn yoki kundalik yozish tavsiya etiladi. Mavzular kundalik hayot, o'qish, hobbii yoki kelajakdagi rejalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Doimiy yozish fikrlarni erkin ifodalashga yordam beradi.

2. Yangi o'rganilgan so'zlarni inshoda qo'llash: Har safar yangi lug'at o'rganilgandan so'ng, ushbu so'zlar ishtirokida bir necha gap yoki kichik paragraf yozish kerak. Bu usul so'zlarni passiv lug'atdan faol lug'atga o'tkazishga xizmat qiladi va ularni uzoq muddat eslab qolishni osonlashtiradi.

3. Namunaviy insholarni o'qish va tahlil qilish: Muvaffaqiyatli yozilgan insholarni o'qish o'quvchilarga matn tuzilishi, bog'lovchi vositalar va uslubiy xususiyatlarni o'rganishga yordam beradi. O'qilgan matnlardan foydali iboralar va yangi so'zlarni alohida daftarga yozib borish tavsiya etiladi.

4. Grammatik xatolar ustida ishlash: Har bir yozilgan insho tekshirilgandan keyin xatolar tahlil qilinishi lozim. Ayniqsa, takrorlanadigan grammatik xatolar alohida qayd etilib, ular ustida qo'shimcha mashqlar bajarilishi kerak.

5. Sinonimlardan foydalanish: Bir xil so'zlarni ko'p takrorlash matn sifatini pasaytiradi. Shu sababli o'quvchilar sinonimlarni o'rganib, ularni yozma nutqda qo'llashga odatlanishlari zarur. Bu lug'at boyligini kengaytiradi va matnni yanada boy qiladi.

6. Mantiqiy bog'lovchilardan foydalanish: Inshoda fikrlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash uchun bog'lovchi vositalardan foydalanish muhimdir

7. Vaqt bilan yozish mashqlarini bajarish: Imtihonlarga tayyorlanayotgan talabalar ma'lum vaqt ichida insho yozish mashqlarini bajarishlari kerak. Bu ularga vaqtni to'g'ri taqsimlash va imtihon sharoitiga moslashish imkonini beradi.

8. HSK imtihonlariga mos mavzularda yozish: Xitoy tilini o'rganayotgan talabalar HSK imtihonlarida uchrashi mumkin bo'lgan mavzular bo'yicha muntazam insho yozishlari tavsiya etiladi. Masalan: Ta'limning ahamiyati, Internetning foyda va zararlari, Sog'lom turmush tarsi, Atrof-muhit muammolari, Kelajakdagi kasbim, Sayohat va madaniyat va hokazo mavzularda turli xil insholar yozish mumkin.

Xulosa

HSK yozuv imtihoni xitoy tilini o'rganish jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. HSK 1 darajasida oddiy so'z va jummalarni yozishdan boshlangan jarayon HSK 9 darajasiga kelib murakkab ilmiy maqolalar, tahliliy esse va akademik tadqiqotlar yozish darajasigacha rivojlanadi. Yozuv ko'nikmasi nafaqat imtihondan muvaffaqiyatli o'tish, balki Xitoy universitetlarida ta'lim olish, ilmiy faoliyat olib borish va professional muhitda samarali muloqot qilish uchun ham zarur hisoblanadi. Shu sababli HSKga tayyorgarlik jarayonida yozuv malakasini muntazam rivojlantirish har bir o'quvchi uchun ustuvor vazifa bo'lishi lozim. Shu sababli xitoy tilini o'rganuvchi talabalar uchun insho yozish nafaqat imtihonga tayyorlanish vositasi, balki til kompetensiyasini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent. O'qituvchi. 2012. 352
2. 刘珣. “对外汉语教育学引论”. 北京语言大学出版社, 2020.
3. 李晓琪. “汉语教学法教程”. 北京大学出版社, 2019.

- 4.王力.“现代汉语”. 商务印书馆, 2018.
- 5.陈宏.“汉语写作教程”. 高等教育出版社, 2021.
- 6.“HSK标准教程(4级)”. 北京语言大学出版社, 2022.
- 7.HSK标准教程（5级）”. 北京语言大学出版社, 2022.
- 8.HSK标准教程（6级）”. 北京语言大学出版社, 2022.
- 9.新汉语水平考试大纲”. 北京语言大学出版社.
- 10.中国语言教育研究期刊.
- 11.国际汉语教育研究相关论文集.

